

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK:

QURYOZOV DILSHOD ISMAILOVICH

**XORAZM VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING
EKOLOGIK-IQTISODIY IMPERATIVLARI**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: akademik, i.f.d., prof. N.K.Aimbetov

Toshkent– 2025 yil

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I-BOB.	MINTAQA SANOATI EKOLOGIK-IQTISODIY RIVOJLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	14
§ 1.1.	Hududiy o‘zgarishlar talabi sifatida sanoat ekologik-iqtisodiy rivojlanishining mohiyati.....	14
§ 1.2.	Hududiy o‘zgarishlar asosida mintaqalar ekologik-iqtisodiy rivojlanishini baholash ko‘rsatkichlari	23
§ 1.3.	Hududlarda sanoatning rivojlanishini tabaqalashtirishni ekologik-iqtisodiy baholashga uslubiy yondashuv	31
	Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	41
II-BOB.	XORAZM VILOYATINI RIVOJLANTIRISHNING EKOLOGIK-IQTISODIY IMPERATIVLARI	43
§ 2.1.	Sanoatni ekologik-iqtisodiy rivojlantirishning institutsional asoslari	43
§ 2.2.	Xorazm viloyatida sanoat rivojlanishining hozirgi holati .	53
§ 2.3.	O‘zbekistonda va Xorazm viloyatida sanoatning hududiy rivojlanishining tabaqalanishini baholash.....	63
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	70
III-BOB.	XORAZM VILOYATI SANOATINING EKOLOGIK-IQTISODIY RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	72
§ 3.1.	Xorijiy mamlakatlarida sanoatni rivojlantirishning ekologik-iqtisodiy imperativlari	72
§ 3.2.	Xorazm viloyati sanoatining ekologik-iqtisodiy rivojlanishida ustuvor yo‘nalishlar.....	80
§ 3.3.	Xorazm viloyati sanoatining kompleksli ekologik-iqtisodiy rivojlanish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	86
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	96
	XULOSA	99
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAP RO‘YXATI	102
	ILOVALAR.....	

KIRISH

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyoti amaliyotida mintaqalar sanoatining ko‘lami uning ekologik-iqtisodiy imperativlari asosida rivojlanishini ko‘rsatmoqda hamda hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlashning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Rivojlanishning hozirgi bosqichida mamlakat hududlari o‘rtasida yalpi hududiy mahsulot (YAHM) va sanoat ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha tafovutning ortib borishi kuzatilmoqda. Jumladan, Xitoyda aholi jon boshiga YAHM hajmi eng yuqori va eng past mintaqalari o‘rtasidagi farq 18 barobarni, Rossiyada 25, Yevropa Ittifoqida 4,2, AQSHda 1,7 va Yaponiyada 1,35 barobarni tashkil etmoqda¹. Ta‘kidlash joizki, YAHMning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan mintaqaviy sanoatning hududlar yuqori iqtisodiy o‘sish darajasiga erishishida, ekologik va iqtisodiy imperativlar, innovatsion faoliyat, zamonaviy texnika va boshqa sohalarni rivojlantirishdagi ahamiyati ortib bormoqda. Ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasida mintaqaviy sanoatini yanada rivojlantirishda, zamonaviy ilm-fan, texnika va innovatsiya yutuqlaridan yanada faolroq foydalanish muhim ekanligini ko‘rsatmoqda.

Jahon mamlakatlarida mintaqalar barqaror iqtisodiy o‘sishidagi nomutanosibliklar, hududlar iqtisodiyoti tarmoqlaridagi tarkibiy o‘zgarishlar borasidagi tadqiqotlarida hududlarda ilmga bo‘lgan talab mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun innovatsion texnika yutuqlaridan ishlab chiqarishda samarali foydalanish, ekologik madaniyatni shakllantirish asosida innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishni ko‘zda tutuvchi ilmiy izlanishlarga alohida e‘tibor qaratish zarurati muhim ustuvorlik kasb etmoqda. Bu esa, hududlarda tabiiy resurslar yetishmasligi hamda muntazam ravishda ular narxining oshib borish

¹ Конков А.Т. Неравенство регионов как проблема развития в России и Китае. Интернет-журнал СахГУ: «Наука, образование, общество». http://sakhgu.ru/wp-content/uploads/page/record_36653/2017_09/konkov.pdf; Динамика развития регионов Евросоюза. Бюллетень о текущих тенденциях мировой экономики. / под руководством Леонида Григорьева. Выпуск №27, декабрь 2019. <https://ac.gov.ru/files/publication/a/15671.pdf>; Дж.Блудорн и др. Увеличивающиеся разрывы: региональное неравенство в странах с развитой экономикой. Блог МВФ. <https://www.imf.org/ru/News/Articles/2019/10/09/blog-widening-gaps-regional-inequality-within-advanced-economies>.

sharoitida sanoat mahsulotlari texnik darajasini oshirish, yuqori texnologiyali va innovatsion mahsulotlar eksportini ko'paytirish, sanoatni innovatsion faol ishlab chiqarish asosida barqaror o'sish bosqichiga olib chiqish, tadqiqotlarning yangi natijalaridan samarali foydalanish bo'yicha keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

O'zbekistonda islohotlarning yangi bosqichida hududlar sanoati rivojlanishi, bu sohada ekologik, texnologik va innovatsion siyosatni amalga oshirish hamda xarajatlarni kamaytirish maqsadida yuqori texnologiyalarni tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda „Orolbo'yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta'sirini yumshatish, mahalliy sanoatni rivojlantirish bo'yicha mutlaqo yangi ekologik-iqtisodiy imperativlar“² asosida amalga oshirish va yuqori natijalarga erishish vazifalari belgilangan. Bunday vazifalarni samarali hal etishda sanoat tarmoqlariga ilg'or texnologiyalarni joriy etish, mamlakat va uning hududlarida innovatsiyani rivojlantirish hamda ishlab chiqarishga tatbiq etish bo'yicha iqtisodiy imperativlar asosida yangi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyarbdagi PF-158-son „O'zbekiston-2030“ startegiyasi to'g'risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son 2022-2026 yillarda „O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi, 2021-yil 9-iyundagi PF-6244-son „Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi, 2020-yil 1-maydagi PQ-4702-son „Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida”gi qarorlari, 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-son „Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora- tadbirlar to'g'risidagi»gi, Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2023 yil 11sentyarbdagi PF-158-son „O'zbekiston-2030“ startegiyasi to'g'risidagi farmoni.

28-sentyabrdagi 546-son “2022-2026-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mintaqalar sanoatini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlari hamda asosiy yo‘nalishlari xorijiy mamlakat olimlari J.Bogan, R.Boshma, J.K.Gelbreyt, H.Kanfei, F.Perru, M.Porter, R.Rutten, A.Smit, innovatsiyalarning hududiy sanoat ishlab chiqarishga ta’siri esa G.M.Xilxorst, H.Chaoran, I.Chjou, Y.A.Shumpeter, M.J.Enrayt tomonidan keng o‘rganilgan³.

³ Боган Ж. The role of industry-specific, occupation-specific, and location-specific knowledge in the growth and survival of new firms/PNAS//December 11, 2018. – 115 с.; Boschma R. How do regions diversify time? Industry relatedness and the development of new growth paths in regions. 2011; Гэлбрейт Ж.К. Новое индустриальное общество. Избранное. – М.: “Эксмо”, 2008. – 1200 с.; Zhou Yi, Canfei He. Regional industrial development in a dual-core industry space in China: The role of the missing service. Habitat International, Volume 94, 2019. P. 2-12.; Перру Ф. Экономическое пространство: теория и приложения // Пространственная экономика. №2. 2007 – С. 124-134; Porter, М (2003). The economic performance of regions. Regional studies, 37(6-7). P. 549-578; Rutten R. Knowledge and Innovation in Regional Industry: An Entrepreneurial Coalition (Routledge Studies in Global Competition Book 19) 1st Edition, Kindle Edition, 2019. P. 35-45.; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Книги 1–3: – Москва: “Директ-Медиа”, 2014. – 442 с.Hilhorst Jos G.M., Chaoran Hu. Industrialization and Local / Regional Development Revisited // Development and Change. – 2018. – Vol. – N 4. – P. 139–165; Шумпетер Й.А. История экономического анализа: в 3 т. – СПб.: Экономическая школа, 2003 – 494 с.; Enright M. J. Survey on the Characterization of Regional Clusters: Initial Results. - Working Paper, Institute of Economic Policy and Business Strategy: Competitiveness Program, University of Hong Kong, Sun Hung Kai, 2000. - 21 p.